

ISSN:  
3060-5045

ILMIY-AMALIY  
ELEKTRON JURNAL



Iyun № 6, 2026

Агробизнес, наука и  
технология

# AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and  
technology

№ 083688



Toshkent-2026

Platform &  
workflow by  
OJS / PKP  
.....

**BOSH MUHARRIR**

**Oblomuradov Narzullo Naimovich** – i.f.d. (DSc), professor.

**Bosh muharrir o'rinbosarlari:**

**Islamov Soxib Yaxshibekovich** – q.x.f.d. (DSc), professor.

**Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich** – q.x.f.d. (DSc), professor.

**Farmonov To'liqin Xayitmurodovich** – i.f.d. (DSc), professor.

**Muharrir:**

**Beglayev Uchqun Xurramovich** – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

**Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:**

**Kusainov Xalel Xaymullayevich** – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

**Vilija Aleknevičienė** – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

**Gilbert Ludwig** – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

**Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich** – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

**Daiva Makutenene** – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

**Xaitboyeva Nargiza Alikulovna** - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

**Tahrir hay'ati:****08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

**Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich** – i.f.d. (DSc), professor;

**Saidov Muxammad-Ali Xakimovich** – i.f.d. (DSc), professor;

**Rustamova Iroda Baxramjanovna** – i.f.d. (DSc), professor;

**Ochilov Ilhom Sayitqulovich** – i.f.d. (DSc), professor;

**Askarov Nazimjon Niyozovich** – i.f.d. (DSc), professor;

**Abdullayev Altinbek Yangibayevich** – i.f.d. (DSc), professor;

**Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich** – i.f.n. professor;

**Mamadiyarov Dilshad Uralovich** – i.f.n. dotsent;

**Achilov Mashrab Ulug'bekovich** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Galimova Feryuza Rafikovna** – i.f.n. dotsent;

**Odilova Dilnozaxon Barnayevna** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Yangiboyev Dilshod G'ulomovich** – i.f.f.d. (PhD);

**Saidova Dildora Nurmatovna** – i.f.n. dotsent;

**Dexkanova Nilufar Sagdullayevna** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Boltayev Nurali Shiramatovich** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Ibragimova Madina Ismoilovna** – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

**06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:**

**Shokirov Alisher Djuraboyevich** – q.x.f.d. (DSc), professor;

**Mardanov Husniddin Xolbozorovich** – q.x.f.d. (DSc);

**Abdiyev Fozil Rashidovich** – q.x.f.d. (DSc);

**Sattorov Maqsud Axtamovich** – q.x.f.d. (DSc);

**Yuldashov Nurbek Ergashovich** – v.f.d. (DSc);

**Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich** – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

**Namazov Ixtiyor Choriyevich** – q.x.f.d. (DSc), professor;

**Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li** – q.x.f.d. (DSc), professor;

**Abdullayev Anvar Kodirullayevich** – b.f.n., katta ilmiy xodim;

**Atabayev Ma'ruf Maxmudovich** – q.x.f.n. professor;

**Safarov Asqar Asadullayevich** – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Mustafakulov Davron Mamatqulovich** – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Kasimov Botir Sadriddinovich** – q.x.f.f.d. (PhD);

**Akramov Umidilla Ikramdjanovich** – q.x.f.n. dotsent;

**Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li** – q.x.f.f.d. (PhD);

**Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li** – q.x.f.f.d. (PhD);

**Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna** – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

**Idrisov Xusanjon Abdujabborovich** – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

**MUASSIS**

Toshkent davlat agrar universiteti

**ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR**

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

[t.me/agrobiznes\\_elektronjurnal](https://t.me/agrobiznes_elektronjurnal)

E-mail: [licht-1989@mail.ru](mailto:licht-1989@mail.ru)

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

**Jurnalning ilmiyligi:**

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 304-sahifa.  
2026-yil, iyun.





## **“AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR” ILMIIY-AMALIIY ELEKTRON JURNALI**

### **08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati.

### **06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI**

- 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik
- 06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik
- 06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika
- 06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik
- 06.01.06 – Sabzavotchilik
- 06.01.07 – Mevachilik va uzumchilik
- 06.01.08 – O‘simlikshunoslik
- 06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish
- 06.01.11 – Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash
- 06.02.02 – Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini oziqlantirish va ozuqa tayyorlash texnologiyasi
- 06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi
- 06.03.01 – O‘rmon ekinlari. Seleksiya, urug‘chilik va shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish. O‘rmonlar agromelioratsiyasi va himoya o‘rmonlarini barpo etish, Dorivor o‘simliklar introduksiyasi, yetishtirish texnologiyasi va agrofarmekologiyasi.





## MUNDARIJA

### IQTISODIYOT FANLARI

#### **BAKAYEV ZIYOVUDDINXON TOSHBOLTA O'G'LI**

Turizm va mehmondo'stlik sohasining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.....16

#### **ИБРАГИМОВА МАДИНА ИСМОИЛОВНА**

Инвестиции в человеческий капитал как фактор экономического роста.....25

#### **MAXMUDOV JASURBEK ERGASHEVICH**

Investitsion salohiyatni oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni.....35

#### **MUROTOSIMOV SHOXRUX ABDISALIMOVICH**

Korporativ ijtimoiy boshqaruv tizimini rivojlantirishda ESG tamoyillari va raqamli texnologiyalarning roli.....43

#### **ESHMIRZAYEV SODIKJON ERKONBOY O'G'LI**

Sanoat korxonalarida quyosh energetikasi loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish.....53

#### **IBROXIMOVA NAFOSAT ABDUSATTOR QIZI**

Raqamli iqtisodiyotda mehnat unumdorligini oshirishning innovatsion mexanizmlari.....60

#### **QODIROVA MOHINUR BAHODIR QIZI**

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishning zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirish.....69

#### **XAYDAROVA E'ZOZA SHUKURULLAYEVNA**

Korxonalarda innovatsion salohiyatni boshqarishning rivojlanish tendensiyalari.....78

#### **MAMANOV MUKHAMMADAMIN**

Comparative analysis of management strategies for tourism enterprises in developed and developing countries.....84

#### **TOXIROVA NIGORA ZOKIRJON QIZI**

Mintaqaviy korxonalar faoliyati samaradorligining tashkiliy va funksional diagnostik rivojlanish tendensiyalari.....96

#### **ODILOVA DILNOZAXON BARNAYEVNA**

Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning usullari.....103

#### **TOSHOV MIRZABEK HAKIMOVICH**

Buxoro viloyatida sanoat va turizm integratsiyasi: iqtisodiy samaradorlik tahlili.....107

#### **ABDULLAEV MUZAFFAR ABDUJABBAROVICH**

Evaluation of the results of innovation activities, decision-making and its formation.....112

#### **RAHMONOVA TILLA'OY MALIK QIZI**

Hududlararo sanoat diversifikatsiyasi asosida mintaqaviy rivojlanishni baholashning iqtisodiy-matematik modellari.....119





**IBRAGIMOV AZIZ TURAYEVICH**

Buxoro viloyatida erkin iqtisodiy zonalar faoliyati va asosiy ko'rsatkichlari.....125

**NIGMATJONOV SARDOR ABDUMANNOBVICH**

Hayot faoliyati xavfsizligi fanining fanlararo bog'liqligi: nazariy asoslar va amaliy yondashuv.....138

**ИЛХОМЖОНОВА ФОТИМА МУХИДДИНОВНА**

Методические основы оценки инвестиционного потенциала регионов...145

**RO'ZMETOV NOSIRJON XAMIDJON O'G'LI**

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshirishning institutsional mexanizmlari va istiqbollari.....155

**RAHMONQULOVA KOMILA MUHAMMADI QIZI**

Surxondaryo viloyatida iqtisodiy o'sish omillarining ekonometrik tahlili.....164

**ABDUNAZAROV SAIDAXMAT ABDUMALIKOVICH, SHAMSIYEVA DILSHODA ASQARALI QIZI**

Korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion boshqaruvning roli.....173

**OBILOV MIRKOMIL RASHIDOVICH**

Investitsiya resurslarini optimal yo'naltirishda moliyaviy savodxonlikning roli.....178

**MAMATKULOVA XURSHIDA NASRULLAYEVNA**

Xitoy tajribasi asosida O'zbekistonda kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....185

**OBIDOVA FERUZA YAHYOYEVNA**

Korxonalarda yashil menejment tizimini joriy etish samaradorligi.....191

**BAZAROVA FAYYOZA TUXTAMURODOVNA**

Korxonalar marketing boshqaruvida elektron tijorat va Omni-kanal strategiyalarini qo'llashning asosiy jihatlari.....198

**KUZIYEVA GULNOZA RASHIDOVNA, DILRABO SAYDALIYEVA BAKHRIDDIN KIZI**

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati.....204

**DONIYEV SHAHOB O'TKIR O'G'LI, HALIMOV JAVLONBEK SHAHRIYOROVICH**

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va inflyatsiya o'rtasidagi iqtisodiy bog'lanish.....210

**OXUNOVA OYGUL USMONJON QIZI**

Genderlik tengligi va barqaror mehnat bozorini rivojlantirish: OECD va Markaziy Osiyo mamlakatlarining qiyosiy tahlili.....215

**ISLOMOV JAVOHIR ISKANDAR O'G'LI**

O'zbekiston tijorat banklarida islomiy moliya darchalari faoliyatining buxgalteriya hisobini yuritish va dasturiy ta'minot integratsiyasi istiqbollari.....221





**МУХАММАДИЕВ НАУФАЛБЕК АЗИЗБЕК УГЛИ**

Влияние электронной коммерции на рост валового внутреннего продукта нашей страны.....230

**TAIROVA ZARNIGOR MAMMAT QIZI**

Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarining resurs salohiyatini boshqarish usullari.....238

**BAZAROVA FAYYOZA TUXTAMURODOVNA**

To'qimachilik tovarlari raqobatbardoshligini oshirishda iste'molchilar xulq-atvorining ta'siri.....248

**ЮЛДАШОВА ГАВХАР ХУСНИТДИНОВНА**

Приоритетное значение инновационных подходов и стратегического развития в системе корпоративного управления.....257

**ABDUSALOMOVA FARIDA OLIMJON QIZI**

Raqamli transformatsiyaning xizmat ko'rsatish sohasida bandlik va daromadlarga ta'siri.....262

**XASANOVA RAYXON BOZOROVNA**

Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida banklarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari.....271

**OBIDOVA FERUZA YAHYOYEVNA**

Korxonalarda innovatsion madaniyatni shakllantirish mexanizmlari.....279

**SULEYMANOV FARRUX RAXIMJON O'G'LI**

Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan infratuzilma aktivlarini boshqarish modellari.....284

**TURDIMURATOV MAQSUD MUZAFFAROVICH**

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida qurilish sohasida zamonaviy boshqaruv tizimlarini iqtisodiy ahamiyati.....290

**TURUMOVA DILDORA ABDUMANNONOVNA**

Tijorat banklarida daromad va xarajatlar hisobining zamonaviy holati va rivojlantirish istiqbollari.....297

**SHODMONQULOV KAMOLIDDIN MURODILLAYEVICH**

Kichik sanoat zonalarini rivojlantirish orqali hududiy muammolarni bartaraf etish yo'llari.....304





## KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDIY MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

**SHODMONQULOV KAMOLIDDIN MURODILLAYEVICH**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Savdo ishi" kafedrası dotsenti

E-mail: [shodmonqulovkamoliddin@gmail.com](mailto:shodmonqulovkamoliddin@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kichik sanoat zonalarining (KSZ) hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdagi o'рни, ularning hududiy muammolarni bartaraf etishdagi ahamiyati hamda rivojlantirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida hududlar rivojlanishidagi nomutanosibliklar, ishsizlik, investitsiyalar yetishmasligi, sanoat infratuzilmasining rivojlanmaganligi kabi muammolarni hal etishda KSZlarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi baholangan. Tadqiqot natijalari KSZlarni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish, investitsiyalarni jalb etish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va hududlarning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi.

**Kalit so'zlar:** kichik sanoat zonaları, hududiy rivojlanish, investitsiyalar, bandlik, sanoat infratuzilmasi, iqtisodiy samaradorlik, hududiy muammolar.

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль малых промышленных зон (МЗЗ) в обеспечении регионального экономического развития, их значение в решении региональных проблем и направления развития. В ходе исследования оценивалась экономическая и социальная эффективность МЗЗ в решении таких проблем, как региональные диспропорции в развитии, безработица, недостаток инвестиций и недостаточное развитие промышленной инфраструктуры. Результаты исследования указывают на возможности создания новых рабочих мест, привлечения инвестиций, эффективного использования местных ресурсов и повышения конкурентоспособности регионов за счет развития МЗЗ.

**Ключевые слова:** малые промышленные зоны, региональное развитие, инвестиции, занятость, промышленная инфраструктура, экономическая эффективность, региональные проблемы.

**Abstract:** The role of existing small industrial zones (SIZ) in ensuring the regional economic project, the volume and development of regional production. The development of industrial infrastructure, investment generation, and industrial infrastructure in the economic and economic development of SIZs. The development of new SIZs allows for the creation of new jobs, attraction of investments, effective use of resources, and support for the means of support.

**Keywords:** small industrial zones, regional development, investments, employment, industrial infrastructure, economic efficiency, regional problems.

### KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallasuv jarayonlarining jadallashuvi, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy raqobatning kuchayishi hamda ishlab chiqarishning hududiy diversifikatsiyasi masalalari hududiy rivojlanish siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ko'plab mamlakatlarda hududlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlar, ishsizlik, investitsiyalar oqimining notekis taqsimlanishi va ishlab chiqarish infratuzilmasining yetarli rivojlanmaganligi dolzarb muammolar sifatida saqlanib qolmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda sanoat zonaları, xususan, kichik sanoat zonaları muhim iqtisodiy instrument sifatida namoyon bo'lmoqda. Kichik sanoat zonaları ishlab chiqarish maydonlari, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi va tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoitlarni bir hududda





jamlash orqali sanoatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada hududlarda yangi korxonalar tashkil etiladi, ishlab chiqarish hajmi oshadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va aholi daromadlari ko'payadi.

O'zbekistonda ham hududiy rivojlanishni jadallashtirish va sanoatlashtirish siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida kichik sanoat zonalarini tashkil etish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq KSZlar faoliyatining samaradorligini oshirish va ularning hududiy muammolarni hal etishdagi rolini kuchaytirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurati saqlanib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi kichik sanoat zonalarini rivojlantirish orqali hududiy muammolarni bartaraf etishning samarali yo'llarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik sanoat zonalarini rivojlantirish va ular orqali hududiy iqtisodiy muammolarni hal etish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Quyidagi ilmiy manbalar tadqiqotning nazariy va metodologik asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

M.Porter iqtisodiy klasterlar nazariyasining asoschisi hisoblanadi. Olim korxonalarining ma'lum hududda jamlanishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi, innovatsiyalarni rag'batlantirishi va hududlarning raqobatbardoshligini kuchaytirishini asoslab bergan. Mazkur tadqiqot kichik sanoat zonalarini hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida baholash uchun nazariy asos vazifasini bajaradi.

P.Krugman yangi iqtisodiy geografiya nazariyasida ishlab chiqarishning hududiy konsentratsiyasi iqtisodiy o'sish va investitsiyalar oqimiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, sanoat markazlarining shakllanishi hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Jahon banki hisobotida biznes yuritish uchun yaratilgan shart-sharoitlar, sanoat infratuzilmasi va investitsion muhitning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilingan. Hisobotda sanoat zonalarini kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish va eksport salohiyatini oshirishning muhim vositasi sifatida e'tirof etilgan.

UNIDO (2022) hisobotida sanoat zonalarini va industrial parklarning hududiy rivojlanishdagi o'rni, yangi ish o'rinlari yaratish hamda sanoatlashtirish jarayonlarini jadallashtirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sanoat zonalarini faoliyati hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

O.Toshqulov kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni, bandlikni ta'minlash va ishlab chiqarish hajmlarini oshirishdagi ahamiyatini tahlil qilgan. Tadqiqotda O'zbekiston hududlarida sanoat zonalarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.





A.Abdullayev kichik sanoat zonalarida investitsiyalarni jalb etishning iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq qilgan hamda investitsion jozibadorlikni oshirish orqali hududiy rivojlanishni ta'minlash imkoniyatlarini asoslab bergan.

B.Rasulov tadqiqotida hududiy sanoatlashtirish jarayonlari va kichik sanoat zonalarining aholi bandligini ta'minlashdagi roli tahlil qilingan. Muallif sanoat zonalarini rivojlantirish hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Sh.Karimov tadqiqotida kichik sanoat zonalarini faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional samaradorligini baholash usullari ishlab chiqilgan. Muallif sanoat zonalarining natijadorligini kompleks ko'rsatkichlar asosida baholash zarurligini asoslaydi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik sanoat zonalarini hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o'rinlari yaratish va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarda kichik sanoat zonalarining hududiy muammolarni bartaraf etishdagi samaradorligini kompleks baholash, ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish va hududiy rivojlanishga ta'sirini integrallashgan yondashuv asosida o'rganish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida iqtisodiy tahlilning bir qator ilmiy usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash, tizimli yondashuv, mantiqiy umumlashtirish hamda iqtisodiy tahlil usullari qo'llanildi. Hududiy sanoat zonalarining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ilmiy manbalar va statistik ma'lumotlar asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida xalqaro tajribalar ham tahlil qilindi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Hozirgi kunda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va aholi bandligini oshirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, mahalliy resurslarni ishlab chiqarish jarayoniga keng jalb etish hamda yangi sanoat quvvatlarini yaratish hududiy rivojlanishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, kichik sanoat zonalarini tashkil etish va rivojlantirish hududiy iqtisodiy muammolarni hal etishning samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda ayrim hududlarda sanoat ishlab chiqarishining sust rivojlanganligi, investitsiyalar hajmining yetarli emasligi, yangi ish o'rinlarining kam yaratilishi va mavjud xomashyo resurslaridan to'liq foydalanilmayotganligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Natijada hududlar o'rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha sezilarli tafovutlar yuzaga kelmoqda. Bunday





sharoitda kichik sanoat zonalarini hududiy iqtisodiyotning "o'sish nuqtalari" sifatida xizmat qilib, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb etishda muhim rol o'ynaydi.

Kichik sanoat zonalarining asosiy afzalliklaridan biri shundaki, ular tadbirkorlik subyektlarini zarur ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan ta'minlaydi. Elektr energiyasi, gaz, suv, transport va logistika xizmatlarining bir hududda jamlanganligi korxonalar faoliyatini tashkil etish xarajatlarini kamaytiradi. Bu esa yangi ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratadi va investorlarning qiziqishini oshiradi. Natijada hududlarga investitsiyalar oqimi ko'payib, iqtisodiy faollik ortadi.

Kichik sanoat zonalarini rivojlantirish orqali hal etilishi mumkin bo'lgan eng muhim muammolardan biri aholi bandligini ta'minlash masalasidir. Sanoat zonalarida yangi korxonalar tashkil etilishi natijasida yuzlab va minglab yangi ish o'rinlari yaratiladi. Bu ayniqsa mehnat resurslari ko'p bo'lgan, ammo sanoat korxonalarini yetarli rivojlanmagan hududlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi ish o'rinlarining yaratilishi aholi daromadlarini oshiradi, kambag'allik darajasini kamaytiradi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Hududiy muammolarni bartaraf etishda mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash ham muhim o'rin tutadi. Ko'plab hududlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari, qurilish materiallari, mineral resurslar va boshqa xomashyo turlari mavjud bo'lishiga qaramasdan, ularni qayta ishlash darajasi pastligicha qolmoqda. Kichik sanoat zonalarida qayta ishlash korxonalarini tashkil etish orqali qo'shimcha qiymat yaratish, import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish mumkin. Bu esa hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish bilan birga mamlakat eksport hajmining o'sishiga ham xizmat qiladi.

Kichik sanoat zonalarini rivojlantirish hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tayyor infratuzilma va davlat tomonidan yaratilayotgan qulay sharoitlar investorlarning tavakkalchilik darajasini kamaytiradi. Shu sababli mahalliy va xorijiy investorlar sanoat zonalarida faoliyat yuritishga ko'proq qiziqish bildiradilar. Investitsiyalarning ko'payishi esa yangi texnologiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulotlarning raqobatbardoshligini kuchaytirishga imkon yaratadi.

Shu bilan birga, kichik sanoat zonalarining samaradorligi ko'p jihatdan ularni boshqarish tizimiga bog'liq. Zamonaviy sharoitda sanoat zonalarini raqamlashtirish, elektron boshqaruv tizimlarini joriy etish, investitsiya loyihalarini monitoring qilish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy ta'lim tashkilotlari va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kelgusida kichik sanoat zonalarini rivojlantirishda hududlarning ixtisoslashuv xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Masalan, qishloq xo'jaligi rivojlangan hududlarda oziq-ovqat va agro-sanoat korxonalarini, mineral resurslarga boy hududlarda qurilish materiallari va qayta ishlash





sanoatini, turizm salohiyati yuqori hududlarda esa hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish yo'nalishlarini rivojlantirish yuqori iqtisodiy samara beradi.

### 1-jadval

#### Kichik sanoat zonalarini rivojlantirish orqali hududiy muammolarni bartaraf etishning asosiy yo'nalishlari

| Hududiy muammolar   | Muammoning hududiy rivojlanishga ta'siri                | Kichik sanoat zonalarini rivojlantirish orqali yechimlar           | Kutilayotgan natijalar                                      |
|---|---|--|---|
| Ishsizlik darajasining yuqoriligi                               | Aholi daromadlarining pasayishi, migratsiyaning ortishi | Yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish va kengaytirish | Yangi ish o'rinlari yaratiladi, bandlik darajasi oshadi     |
| Investitsiyalar hajmining pastligi                              | Iqtisodiy faollikning sustlashishi                      | Investorlar uchun tayyor infratuzilmaga ega maydonlarni yaratish   | Mahalliy va xorijiy investitsiyalar hajmi ortadi            |
| Mahalliy xomashyo resurslaridan to'liq foydalanilmasligi        | Qo'shimcha qiymatning yaratilmasligi                    | Xomashyoni qayta ishlovchi korxonalarni joylashtirish              | Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va qo'shimcha qiymat oshadi |
| Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarning yuqoriligi        | Nomutanosib rivojlanish yuzaga keladi                   | Sanoatlashuv darajasi past hududlarda KSZlarni tashkil etish       | Hududlararo iqtisodiy tafovut qisqaradi                     |
| Eksport salohiyatining pastligi                                 | Valyuta tushumlari kamayadi                             | Eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni qo'llab-quvvatlash  | Eksport hajmi va raqobatbardoshlik oshadi                   |
| Muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanmaganligi | Ishlab chiqarish xarajatlari ortadi                     | KSZlarda zamonaviy infratuzilma yaratish                           | Korxonalar xarajatlari kamayadi                             |
| Kichik biznes va tadbirkorlikning sust rivojlanishi             | Iqtisodiy faollik pasayadi                              | Imtiyozli sharoitlarda ishlab chiqarish maydonlarini taqdim etish  | Tadbirkorlik subyektlari soni ko'payadi                     |
| Innovatsion texnologiyalarning kam joriy etilishi               | Mehnat unumdorligi past bo'ladi                         | Innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish                | Ishlab chiqarish samaradorligi oshadi                       |
| Yoshlar bandligi muammosi                                       | Ijtimoiy muammolar kuchayadi                            | Yoshlar tadbirkorligini KSZlar orqali qo'llab-quvvatlash           | Yoshlar bandligi va daromadlari oshadi                      |
| Soliq bazasining cheklanganligi                                 | Mahalliy budjet daromadlari kamayadi                    | Yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish                 | Budjet tushumlari va hududiy moliyaviy barqarorlik oshadi   |

Manba: Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar va hududiy rivojlanish konsepsiyalari asosida tuzilgan.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, kichik sanoat zonalarini hududiy rivojlanishga to'sqinlik qilayotgan bir qator iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda muhim vosita hisoblanadi. Xususan, yangi ishlab chiqarish korxonalarining tashkil etilishi aholi bandligini oshirish va ishsizlik darajasini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tayyor infratuzilmaga ega sanoat maydonlarining yaratilishi mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kichik sanoat zonalarini mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat yaratish, eksport salohiyatini oshirish va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, zamonaviy infratuzilma va innovatsion texnologiyalarni joriy etish korxonalar faoliyati samaradorligini oshirib, hududlarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi.





Umuman olganda, kichik sanoat zonalarini rivojlantirish nafaqat sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish, balki hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va aholi farovonligini yuksaltirish orqali hududiy muammolarni kompleks hal etishning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytganda, kichik sanoat zonalarini hududiy iqtisodiy muammolarni hal etishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ular yangi ish o'rinlari yaratish, investitsiyalarni jalb qilish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish, sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli kichik sanoat zonalarini innovatsion va raqamli boshqaruv asosida rivojlantirish, ularning infratuzilmasini takomillashtirish hamda investitsion jozibadorligini oshirish mamlakat hududlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning muhim omillaridan biri bo'lib qoladi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kichik sanoat zonalarini hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, aholi bandligini ta'minlash, investitsiyalarni jalb qilish va mahalliy resurslardan samarali foydalanishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Kichik sanoat zonalarini faoliyati natijasida yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratilmoqda, tadbirkorlik subyektlari soni ortmoqda hamda hududlarning sanoat salohiyati mustahkamlanmoqda. Shu bilan birga, ular hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish, mahalliy budjetlar daromad bazasini kengaytirish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik sanoat zonalarining samaradorligi hududning iqtisodiy salohiyati, mavjud infratuzilma darajasi, investitsion jozibadorligi hamda boshqaruv tizimining takomillashganlik darajasiga bevosita bog'liq. Ayrim hududlarda kichik sanoat zonalarini muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan bo'lsa, boshqa hududlarda infratuzilma muammolari, investitsiya resurslarining yetishmasligi, sanoat kooperatsiyasining sustligi va malakali kadrlar tanqisligi ularning rivojlanishini cheklab kelmoqda.

Shuningdek, tadqiqot davomida kichik sanoat zonalarining hududiy muammolarni bartaraf etishdagi imkoniyatlari to'liq ishga solinmayotgani aniqlandi. Xususan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini o'rtasidagi kooperatsion aloqalarning yetarli rivojlanmaganligi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasining pastligi hamda eksportga yo'naltirilgan loyihalarning ulushi nisbatan kamligi kichik sanoat zonalarini samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

Birinchiidan, kichik sanoat zonalarini tashkil etishda hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, resurs salohiyati va mehnat bozori xususiyatlarini hisobga olgan





holda differensial yondashuvni qo'llash lozim. Bu mavjud resurslardan samarali foydalanish va hududiy raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, kichik sanoat zonalarida muhandislik-kommunikatsiya va logistika infratuzilmasini yanada rivojlantirish zarur. Elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv ta'minoti va transport xizmatlarining uzluksizligini ta'minlash investitsion jozibadorlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Uchinchidan, kichik sanoat zonalarida faoliyat yuritayotgan korxonalar o'rtasida sanoat kooperatsiyasi va klaster aloqalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bu ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahalliyashtirish darajasini oshirish va qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi.

To'rtinchidan, innovatsion texnologiyalar va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratish lozim. "Raqamli sanoat zonasi" konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish boshqaruv samaradorligini oshirish, investitsiya loyihalarini monitoring qilish va xizmatlar ko'rsatish sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Beshinchidan, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni qo'llab-quvvatlash, xalqaro standartlar asosida mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish hamda tashqi bozorlarga chiqish uchun marketing va logistika xizmatlarini rivojlantirish zarur.

Oltinchidan, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va sanoat korxonalarini o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali malakali kadrlar tayyorlash va innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, kichik sanoat zonalarini rivojlantirish hududiy iqtisodiy muammolarni bartaraf etishning samarali vositasi bo'lib, ularning faoliyatini takomillashtirish orqali hududlarda sanoatlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, yangi ish o'rinlari yaratish, investitsiyalar hajmini oshirish hamda aholi farovonligini yuksaltirish imkoniyati kengayadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing Management (15th ed.). Pearson, pp. 112–145.
2. O.Toshqulov, (2018). Hududiy sanoat zonalarining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri. Toshkent: Iqtisodiyot va boshqaruv nashriyoti, pp. 34–59.
3. Erkinov, S., & Qodirov, D. (2021). Investitsiyalar va hududiy sanoat zonalarini: Eksport salohiyatini oshirish yo'llari. Toshkent: Ilmiy nashr, pp. 12–47.
4. Zhao, W., & Liu, X. (2017). Industrial Parks and Regional Economic Growth in China. Journal of Economic Development, 42(3), pp. 55–72.
5. Asian Development Bank (ADB). (2018). Industrial Zones for Inclusive Growth in Asia. Manila: ADB, pp. 88–115.
6. World Bank. (2020). Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies. Washington, D.C.: World Bank, pp. 75–102.



2026-yil, iyun. №6-son.

**Mas'ul muharrir:** Beglayev Uchqun

**Musahhih:** Boltayev Nurali

**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Normurodov Sarvar,  
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [licht-1989@mail.ru](mailto:licht-1989@mail.ru)

Jurnalning telegram manzili: [t.me/agrobiznes\\_elektronjurnal](https://t.me/agrobiznes_elektronjurnal)

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №083688**

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,  
Universitet ko'chasi, 2-uy**